

ZAMONAVIY ARAB TARIXSHUNOSLIGIDA TURONNING QADIMGI DAVRI: ARXEOLOGIK IZLANISHLAR VA INSTITUTSIONAL YONDASHUVLAR TAHLILI

Ulug'bek Olimov

O'zR FA Tarix institute kichik ilmiy xodimi

largov1900@gmail.com

+99897 422 83 79

Annotatsiya

Ushbu maqolada Arab mamlakatlarida Turon (Markaziy Osiyo) mintaqasining qadimgi davr tarixini o'rganilish holati tahlil qilingan. Tadqiqotda arab dunyosidagi arxeologik izlanishlarning evolyutsiyasi va zamonaviy ilmiy markazlarning Turon tarixiga oid yondashuvlari qiyosiy o'rganilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, arab tarixshunosligida asosan islom davri ustuvorlik kasb etib, qadimgi davrga oid bo'shliqlar mavjud.

Kalit so'zlar: Turon, arab tarixshunosligi, arxeologiya, Qadimgi Misr, ilmiy markazlar.

Arab mamlakatlarida Turon sivilizatsiyasining eng qadimgi davrlarini o'rganish masalasi tarixshunoslikdagi dolzarb va ayni paytda murakkab yo'nalishlardan biridir. Ma'lumki, uzoq vaqt davomida, xususan, sovet va postsovet ilm-fanida arab tadqiqotchilari faqat islom dini va undan keyingi davr tarixi bilan shug'ullanadi, degan biryoqlama qarash hukmronlik qilib keldi. Bu esa arab mintaqasida arxeologiya fanining salohiyatiga yetarlicha baho bermaslikka va arab tilidagi manbalardan faqat o'rta asrlar tarixini yoritishda foydalanishga olib keldi.

Holbuki, G'arb (fransuz, ingliz, nemis) olimlari allaqachon arab diyorlarida keng ko'lamli arxeologik qazishmalar olib borgan va qimmatli ma'lumotlarni to'plagan edilar. Bugungi kunga kelib, zamonaviy arab arxeologlarining izlanishlari natijasida Turonning qadimgi o'tmishiga aloqador muhim faktlar yuzaga chiqmoqda. Mazkur yangi ma'lumotlarni qiyosiy tahlil qilish va ilmiy muomalaga kiritish tarix fanidagi mavjud bo'shliqlarni to'ldirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Turon mintaqasi tarixiga oid masalalarni bevosita tahlil qilishdan avval, arab dunyosida arxeologiya fanining evolyutsiyasi va ilmiy-tadqiqot institutlarining shakllanish dinamikasiga nazar tashlash maqsadga muvofiqdir. Mazkur jarayonni shartli ravishda ikki yirik bosqichga bo'lib o'rganish mumkin.

Birinchi bosqich — G'arb ekspeditsiyalari davri. Bu davr XVIII asr so'ngidan to XX asr o'rtalarigacha bo'lgan vaqt oralig'ini o'z ichiga oladi. Mustamlakachilik siyosati fonida Yevropa hukumatlari Sharq sivilizatsiyasini o'rganishni jadallashtirdilar. Natijada Misr, Mesopotamiya va boshqa arab hududlarida keng ko'lamli qazishmalar olib borilib, qadimgi

sivilizatsiyalarga oid boy madaniy meros namunalari to'plandi. Biroq, bu harakatlarning tub negizida sof ilmiy qiziqishdan ko'ra, metropoliya muzeylarini nodir eksponatlar bilan to'ldirish va geosiyosiy maqsadlar ustuvor edi. Shu bois, mahalliy aholi tarixini chuqur o'rganish masalasi ikkinchi darajali bo'lib qoldi va aksariyat fundamental tadqiqotlar ingliz, fransuz hamda nemis tillarida e'lon qilindi.

Mintaqadagi tizimli tadqiqotlarning debochasi sifatida Napoleon Bonapartning 1798-yildagi Misr yurishi e'tirof etiladi. Aynan shu yili imperator buyrug'i bilan Qohirada "Misr instituti" tashkil etildi. Unda taniqli davlat arbobi va olim Gaspar Monj boshchiligidagi mutaxassislar guruhi, xususan, arxeologlar faoliyat yuritdi. Ushbu ekspeditsiya mevasini 1809–1829-yillarda nashr etilgan va 29 jildidan iborat bo'lgan fundamental "Misr tavsifi" ("Description de l'Égypte") to'plamida ko'rish mumkin [1; 724].

XIX asrga kelib yevropaliklarning ilmiy ekspeditsiyalari ko'lami yanada kengaydi. Bu davrda shveysariyalik sharqshunos Iogann Lyudvig Burkhardtning jasorati va ilmiy faoliyati diqqatga sazovordir. U mintaqada erkin harakatlanish va mahalliy aholi ishonchini qozonish maqsadida o'z ismini Ibrohim ibn Abdullohga o'zgartirib, musulmon qiyofasida Nubiya, Suriya va Saudiya Arabistoni bo'ylab ilmiy safarlar uyushtirdi [2,3,4]. O'sha davrda g'arblik nasroniylarning yoki yevropaliklarning bu hududlarda ochiq tadqiqot olib borishi hayot uchun xavfli bo'lib, ular ko'pincha josuslikda yoki missionerlikda gumon qilingan. Shu bois, Burkhardt va uning izdoshlari XX asrga qadar mahalliy urf-odatlar va liboslardan niqob sifatida foydalanishga majbur bo'ldilar.

Xulosa qilib aytganda, arab arxeologiyasining ilk bosqichi jahon fani uchun qimmatli moddiy manbalarni taqdim etgan bo'lsa-da, u mustamlakachilik manfaatlariga xizmat qilgani rost. Bu tadqiqotlar uzoq vaqt davomida mahalliy xalqlarning milliy o'zligini anglashiga va milliy fan rivojiga bevosita hissa qo'sha olmadi.

Arab arxeologiyasi tarixidagi ikkinchi muhim bosqich — bu milliy arxeologiya maktablarining shakllanishi va mahalliy mutaxassislarning faollashuvi bilan xarakterlanadi. Mazkur davr XX asrning ikkinchi yarmidan boshlanib, bugungi kunga qadar davom etmoqda. Arab davlatlarining mustaqillikka erishishi ilm-fan sohasida tub burilish yasadi. Yangi tashkil etilgan milliy universitetlar va ilmiy-tadqiqot markazlari negizida arxeologik izlanishlarning sifati oshdi hamda ko'lami kengaydi. Bu davrda mahalliy olimlar, avvalo, milliy tarixni qayta tiklash va madaniy meros obidalarini asrab-avaylash masalalariga ustuvorlik berdilar. Aytish mumkinki, XX asr so'ngigiga kelib soha rivojida yangi era boshlandi.

Mintaqaviy hamkorlikning yorqin namunasi sifatida 1998-yilda o'z faoliyatini boshlagan "Arab Arxeologlari Uyushmasi"ni (General Union of Arab Archaeologists)¹ keltirish mumkin.

¹ 1994 yili Misr, Saudiya Arabistoni va Sudan olimlari tomonidan Arab arxeologlari uyushmasini tuzish g'oyasi berilganiga qaramay, maqsadga 1998 yilga kelibgina erishilgan. Bugungi kunda uning 2768 a'zosi bor.

Garchi ushbu tuzilmani tashkil etish g'oyasi 1994-yilda Misr, Saudiya Arabistoni va Sudan olimlari tomonidan ilgari surilgan bo'lsa-da, amaliy natija biroz keyinroq ko'zga tashlandi. Hozirgi kunda ushbu tashkilot an'anaviy tarzda turli shaharlarda xalqaro ilmiy anjumanlar o'tkazib kelmoqda. E'tiborlisi, mazkur anjuman materiallari va ilmiy to'plamlari tahlil qilinganda, ularda Markaziy Osiyo (Turon)ning eng qadimgi davrlariga oid maqolalar ham uchrab turishi aniqlandi.

Shuningdek, Arab davlatlari [5; 16 – 17] va Yaqin Sharq arxeologiyasiga oid tadqiqotlar nufuzli xalqaro jurnallarda ham keng yoritilmoqda. Xususan, Arabiston yarim oroli moddiy madaniyati va epigrafikasiga ixtisoslashgan "Arabian Archaeology and Epigraphy", misrshunoslikdagi eng muhim nashrlardan biri – "Journal of Egyptian Archaeology" (Misr arxeologiyasi jurnali) hamda bevosita akademik salohiyatni namoyon etuvchi "Journal of the Faculty of Archaeology, Cairo University" (Qohira universiteti Arxeologiya fakulteti jurnali) kabi nashrlar shular jumlasidandir. Bu jurnallar sohadagi eng so'nggi kashfiyotlar va tahliliy xulosalarni ilmiy jamoatchilikka yetkazishda muhim platforma vazifasini o'taydi.

To'g'ri, ushbu tadqiqotlarning aksariyati bevosita Turon tarixiga bag'ishlanmagan bo'lishi mumkin. Biroq, ularning mazmunida mintaqamiz o'tmishi bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar va kesishuv nuqtalari mavjudligi kuzatiladi. Bu esa arab olimlarida Turonning qadimgi davriga oid dolzarb masalalarni, garchi bilvosita bo'lsa-da, o'rganishga bo'lgan ilmiy qiziqish mavjudligidan dalolat beradi.

Arab davlatlarida Turon tarixi bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tadqiqotchilarning asosiy e'tibori mintaqaning arablar hukmronligi ostidagi davriga, ya'ni islom dinining yoyilishi va undan keyingi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga qaratilgan. Shu bois, Turonning eng qadimgi tarixiga oid fundamental ishlar salmog'i Yevropa, Amerika va Osiyoning boshqa ilmiy maktablari bilan solishtirganda sezilarli darajada kam. Ushbu yo'nalishdagi jiddiy o'zgarishlar faqat XX asrning so'nggi choragiga kelibgina kuzatila boshladi.

Bu jonlanishning asosiy omillari, birinchi navbatda, Markaziy Osiyo respublikalarining davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi va mintaqada yangi geosiyosiy vaziyatning shakllanishi bilan bog'liqdir. Qolaversa, arab dunyosining o'zida milliy arxeologiya faniga e'tiborning kuchayishi va ixtisoslashgan ilmiy markazlarning faoliyati yo'lga qo'yilishi ham bu jarayonga turtki berdi. Ma'lumki, sovet davrida mintaqa "yopiq" bo'lganligi sababli, arab olimlari uchun O'zbekiston va qo'shni respublikalar tarixini birlamchi manbalar asosida o'rganish imkoniyati cheklangan edi. Mustaqillik yillarida esa Arab davlatlari va Markaziy Osiyo o'rtasida siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarni tiklash bo'yicha amaliy harakatlar faollashdi.

Ikki tomonlama munosabatlarning iliqlashuvida diniy va ma'naviy qadriyatlarning mushtarakligi muhim rol o'ynadi. Bundan tashqari, sovet qatag'onlari davrida vatanini tark etishga majbur bo'lgan va arab mamlakatlarida qo'nim topgan o'zbek diasporasining

mavjudligi ham o'zaro qiziqishni orttirdi. Ularning qalbidagi Vatan sog'inchi va tarixiy xotirasi arab jamoatchiligida Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatini chuqurroq anglash zaruratini yuzaga keltirdi.

Pirovardida, mustaqillik omili Markaziy Osiyo va Arab davlatlari o'rtasida yangicha ilmiy hamkorlik aloqalarini o'rnatish, yopiq arxiv fondlaridan foydalanish va tarixiy manbalarni qayta tahlil qilish uchun mustahkam zamin yaratdi.

So'nggi yillarda arab dunyosi ilmiy doiralarida Markaziy Osiyo tarixini fundamental tadqiq etishga qaratilgan tizimli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Ushbu jarayonda Turon mintaqasi, xususan, O'zbekistonning o'tmishi va buguni alohida tadqiqot obyekti sifatida kun tartibiga chiqdi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mintaqada Turon tarixshunosligi bir tekis rivojlanmagan bo'lib, bu borada Misr, Saudiya Arabistoni, Jazoir, Livan, Suriya va Iroq kabi davlatlar peshqadamlik qilmoqda.

Mavjud ilmiy markazlar va oliy ta'lim muassasalarini ixtisoslashuviga ko'ra bir necha guruhga ajratish mumkin:

Birinchi, akademik va klassik tarixni o'rganuvchi markazlar. Misr poytaxtidagi nufuzli Al-Azhar universiteti hamda Misr Qadimiy yodgorliklar Oliy Kengashi shular jumlasidandir. Bu dargohlarda Turonning islom sivilizatsiyasidagi o'rni va Ipak yo'li madaniy aloqalari chuqur o'rganiladi. Shuningdek, Sharqshunoslik sohasida o'z maktabiga ega bo'lgan Bayrutdagi Amerika universiteti (Livan) va Suriyadagi Damashq universiteti olimlari asosan o'rta asrlar, xususan, Xalifalik davridagi arab-turk munosabatlarini tadqiq etishga e'tibor qaratadilar.

Ikkinchi, zamonaviy tarix va siyosatshunoslikka ixtisoslashgan markazlar. Bu yo'nalishda Saudiya Arabistoni yetakchi o'rin tutadi. Masalan, Qirol Faysal nomidagi Islomiy tadqiqotlar markazi O'zbekistonning islomiy merosi bilan bir qatorda, uning mustaqillik yillaridagi taraqqiyotini ham tahlil qilib boradi. Tashqi siyosat va diplomatiya masalalariga ixtisoslashgan Shahzoda Saud al-Faysal nomidagi institut esa mintaqaviy integratsiya va O'zbekistonning xalqaro maydondagi o'rnini o'rganishga ixtisoslashgan.

Misrning Qohira universiteti huzuridagi Osiyo tadqiqotlari markazi postsovet hududidagi davlat qurilishi va milliy o'zlikni anglash jarayonlarini tadqiq etsa, Zaqaziq universiteti qoshidagi institut O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati, energetika siyosati va geosiyosiy o'zgarishlarni tahlil qilishga urg'u beradi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, arab davlatlaridagi mavjud ilmiy salohiyat asosan o'rta asrlar va hozirgi zamon tarixini yoritishga safarbar etilgan. Afsuski, Turonning eng qadimgi sivilizatsiya o'choqlarini, ya'ni islomgacha bo'lgan tarixiy bosqichlarni tadqiq etishga ixtisoslashgan maxsus laboratoriya yoki institutlar faoliyati arab dunyosida hali tizimli shakllanmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Description de l'Égypte, ou, Recueil des observations et des recherches qui ont été faites en Égypte pendant l'expédition de l'armée française / publié par les ordres de Napoléon Bonaparte. – Paris: Imprimerie impériale, 1809–1828. – 724 p.
2. Burckhardt J.L. Travels in Nubia. – London: J. Murray, 1819. – 655 p.
3. Burckhardt J.L. Travels in Syria and the Holy Land. – London: J. Murray, 1822. – 724 p.
4. Burckhardt J.L. Travels in Arabia. – London: H. Colburn, 1829. – 494 p.
5. Sh. Mustaqil O‘zbekistondagi transformatsiya jarayonlarining arab davlatlarida yoritilishi: Tarix fan. b-cha falsafa dokt. (PhD) ... diss.– Toshkent, 2022. – B. 16 – 17.